

MOVOROUNAXR VA XUROSONDA SARBADORLAR HARAKATI**No'monov Kamronbek Kozimjon o'g'li***Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali***Qutbiddinova Nasiba Sayfiddin qizi***Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali talabasi*

Anotatsiya: *Ushbu maqolada Sarbador so'ziga tarifdan tortib, Sarbadorlarning Movarounahr va Xurosonda mo'g'ullar zulmiga qarshi kurashib qilgan qahramonliklari to'g'risida. Hamda Samarqandni mog'ullar hukumdori Ilyosxo'ja iskanjasidan qutqarib qolganligi va Sarbadorlar davlati uning boshqaruv tuzimi haqida keng ma'lumotlar berilgan. Undan tashqari Markaziy Osiyoda avvaldan tinchlik sevar xalqlar yashab o'tganligi va tinchlik uchun jonlarini qurbon qilgan insonlar to'g'risida.*

Kalit so'zlar: *Sarbador, hunarmand, dehqon, g'ulom (musulmon davlatidagi qu'llar) Movarounahr, Xuroson, tabaqa, mo'gul, hokim, xalq, qul, tug'.*

Movarounahir va Xurosonda Sarbadorlar harakati haqida yozishdan oldin Sarbador so'ziga tarif berib olsak. Ko'plab Olimlarning fikricha Sarbador so'zining ma'nosi boshini dorga tikkan degan ma'noni anglatadi. Ya'ni o'z o'limiga rozi bo'lgan insonlardan tuzulgan yirik qo'zg'olonchilar guruhi.

Bu guruhlarning asosiy vakillari hunarmandlar dehqonlar va kamag'allar bo'lgan. Chunki mo'g'illar bosqinidan eng ko'p zarar ko'rgan tabaqa kambag'allar hunarmandlar va dehqonlar tabaqasi edi. Biz bilamizki Chingizzon Movarounahr va Xurosonni 1221-yil bosib olishga muvofaqt bo'lgan.

Shu yillardan so'ng Chingizzon va uning avlodlari birin ketin bu hududlarda o'z hukumronliklarini o'rnatishgan edi. Mo'g'illarda hukumdor almashgandan so'ng soliqlarning yangi turlari vujudga kelar va malakatda ichki nizolar kelib chiqib ularning qo'l ostida bo'lgan hududlarda ham turli xil qo'zg'alonlar va urishlarni kelib chiqishiga sabab bo'lgan.

Xususan Movarounahr va Xurosonda ham bunday urushlar xalqni tinkasini quritgan va o'z navbatida xalqni norozichiliklarining ortib borishiga olib kelgan. Xalq Mo'g'ullar zulmidan qutilish uchun Xurosonda ¹⁸1337-yil Sarbadorlar Davlatiga asos soladi.

Mazkur davlat 45 yil mobaynida mavjud bo'lib bu davlatda Movarounahrga nisbatan mo'g'illar zulmidan ancha holiroq bo'lgan. Tarixchi Rustambek Shamsudinov va Shodi Karimov o'zining Vatanimiz tarixi kitobida Sarbadorlar davlati asos solinishi hamda davlat boshqaruv tuzimi haqida quydag'i ma'lumotlarni bergen. Sarbadorlar davlati asosolinishida Xo'ja Yahyo sarbadorning hizmati beqiyos bo'lgan. Sarbadorlarning ichki davlat yuritish siyosati haqida birorbir ma'lumot bo'lmasa-da, bu davlatning o'z tanga pullarini zarb qilganligi, o'z qo'shinlari bo'lganligi aniq. Bu

¹⁸ Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Birinchi kitob, T., Sharq, 2010.– 346-bet

davlatning yana bir ijomiy tomoni shundaki, unda hokimlik sulolasiga bo'limgan bu o'z navbatida shuni anglatadiki hokim halok bo'ladigan bo'lsa xalqda o'ziga yoqqan insoni hokim qilish imkoniyati bo'lgan. Hokim xalq tomonidan saylanish o'sha davirda Sarbadorlarning kichik davlatining ulkan yutuqlaridan biridir. Saylangan hokim xalq manfatlari uchun hizmat qilgan. Sarbadorlar davlatida bo'lgani kabi bugungi kunda ko'plab davlatlar o'z davlat rahbarlarini saylov orqali saylaydi. Undan tashqari sarbadorlar qullarga ancha yumshoq muamilada bo'lganlar. Qullarni o'z qo'shinlariga qabul qilganlar va hatoki ularni harbiy boshliq lavozimiga ham qo'yanlar. Qullar ham o'z davlatlarini mo'g'llar zulmidan ozod qilish uchun ularga o'z xoxishlari bilan qo'shilganlar.¹⁹ XIV-asrning 50-60-yilariga kelib sarbadorlar harakati Movorounahr hududida ham keng tarqalgan. Bu hududda ham sarbadorlar mo'g'llar zulmidan qutilish uchun jonlarini qurban qilishga ham tayor edi. Xurosonda bo'lgani kabi ularning asosini dehqonlar hunarmandlar kambag'al kishilar va g'ulomlar tashkil qilgan edi. ²⁰Mo'g'ullarga qarshi ko'tarilgan sarbadorlar qo'zg'oloniga Samarqand madrasasining talabasi Mavlonozoda, Abu Bakr Kalaviy Naddof, mengan Xo'rdaki Buxoriylar boshchilik qilganlar. Tarixda ma'lumki 1365-yilda Ilyosxo'ja Samarqandga o'z qo'shinlari bilan kirib boradi.

Bundan habar topgan Amir Temur va Amir Husayin Ilyosxo'jaga qarshi jang qilish maqsadida Samarqand yaqiniga yetib boradi. Amir Temur Amir Husayin va Ilyosxo'ja o'rtasida yirk jang bo'lib o'tadi. Mazkur jangda Amir Temur Amir Husayinning qo'rkoqligi bilan mag'lubiyatga uchraydi. G'alabadan ruxlangan Ilyosxo'ja Samarqandga osonlik bilan kirib borishni rejalshtirgan edi. Ammo Samarqandda yana bir Ilyosxo'jaga qarshi chiqadigan kuch borligidan uning habari yo'q edi. Bu kuch sarbadorlar edi.

Sarbadorlar Ilyosxo'ja qo'shinlariga Samarqandga kirish qismidan turib olovli oq yog'dirib uni chekinishga majbur qiladi. Ilyosxo'ja Samarqandni uzoq qamal qilishni rejalshtirgan edi ammo uning rejasiga amalga oshmadi. Sharafiddin Ali Yazdining "Zafarnoma asarida "bergan ma'lumotlariga qaraganda Ilyosxo'janing qo'shini orasida olat paydo bo'lgan bu olat otlarning katta qismini o'ldirgan.

Bunday vaea mo'g'llar orasida hali bo'limgan edi Shuning uchun ham Ilyosxo'ja tushkunlikka tushib qoladi. Sababi Mo'g'ullar otlarda jang qilishgandagina kuchli otsiz bo'lsa ularni yengish osonroq edi. Nima bo'lganda ham Samarqand Sarbadorlar tufayli mo'g'ul iskanjasidan omon qoladi. Bu haqida eshitgan Amir Husayin va Amir Temur ²¹1366-yil bahorda Samarqandga qaytib keladi.

Sarbadorlar Ular kelgunicha Samarqanda mustaqil hukumronlik qilayotgan edi. ²²Amir Temur va Amir Husayin sarbadorlarni qilgan ishlaridan mammun ekanligini bildirib ularning sharafiga Samarqanda yaqinidagi Konigil nomli kichik qishloqda

¹⁹ B.J.Eshonov., A.A.Odilov. O'zbekiston tarixi. Ikkinci kitob,(XIV-asr o'rtalaridan-XIX asr ikkinchi yarimigacha) T., Donishmand Ziyo, 2020.–19-20 bet

²⁰ Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Birinchi kitob, T., Sharq, 2010.– 347-bet

²¹ B.J.Eshonov., A.A.Odilov. O'zbekiston tarixi. Ikkinci kitob,(XIV-asr o'rtalaridan-XIX asr ikkinchi yarimigacha) T., Donishmand Ziyo, 2020.–20-bet

²² Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Birinchi kitob, T., Sharq, 2010. – 348-bet

bazim qilib ular bilan o'zaro muzokaralar o'tkazish maqsadida Ularning hukumdorlarini chaqiradi.

Sharafiddim Ali Yazdining bergen ma'lumotlariga ko'ra birinchi kun bayram bo'ladi ammo ikkinchi kun Amir Husayin ularga nisbatan hoyinlik qilib ularning boshliqlarini hammasini o'ldirishni buyuradi. Faqatgina Amir Temurning iltimosiga ko'ra Mavlonozodagina omon qoladi va Xurosonga jo'nab ketadi. Shundan so'ng Movorounahr hududida Amir Husayin hukumronligini o'rnatadi va mamlakatda sarbadorlar harakati yakunlanadi. Ammo sarbadorlar faoliyati Xurosonda hali ham davom etayotgan edi.

Amir Temur sarbadorlar hukumdorlaridin biri bo'lgan Mavlonozodani Amir Husayin qahridan qutqarib olganidan so'ng o'zaro nizolashib qoladi. Sababi Amir Husayin ochko'z davlat ishlarida layoqatsiz hamda kim do'st yokim kim dushman ekanligini bilmaydigan hukumdar bo'lgan.

Shuning uchun ham u Amir Temurni sarbadorlar bilan menga qarshi isyon tu'guni ko'tarmoqchi deb o'ylagan. Shundan so'ng Amir Temur bilan tez tez jang qila boshlagan ular o'rtasidagi asosiy jang 1370-yil bo'lib o'tadi va Amir Husayinni o'limi bilan yakunlanadi.²³ Shu yilning o'zida Kurtlar sulolasidan bo'lmish Hirot hokimi G'iyosiddin II Pir Ali endigina Xuroson davlatini hukumronlikni qo'lga kiritgan edi. Uning hukumronlik davrida Xuroson ancha zaiflashib qolgan edi.

Chunki Xurosonda yagona hokimyat yo'q bo'lgan. Lekin Sarbadorlar hukumdorlari uning hukumronligini tan olar edi. 1370-yilda Amir Temur Movorounahrni yagona hukumdar sifatida to'liq boshqarayotgan edi. Amir Temur Movorounahr va Xurosoni birlashtirib yangona markazlashgan davlat qurish maqsadida 1381-yil G'iyosiddin II Pir Ali bilan o'zaro to'qnash keladi. Natijada Xuroson to'liq Amir Temur qo'l ostiga o'tib ketadi. Unga qo'shilib Sarbadorlar ham Amir Temurning davlati tarkibiga kirib ketadi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki tarixchi sifatida Amir Temurning tarixi biz uchun qanchalik qiziqarli va o'rganishimiz zarur bo'lsa sarbadorlar tarixini ham o'rganish shunchalik o'rganishimiz zarurdir. Sababi Amir Temur hokimyat tepasiga chiqib markazlashgan davlat qurib bo'lgunicha sarbadorlar Movorounahr va Xurosonni o'z jonlari va fidoiylik bilan mo'g'ullar zulmidan saqlab turgan. Bu Markaziy Osiyo xalqlarining tinchlik sevar va kerak bo'lsa yurt tinchligi va ozodligi uchun birlashib jonlarini xavf ostiga qo'yib bo'lsa jang qilishga har doim tayorligini bildirib turadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

²³ B.J.Eshonov., A.A.Odilov. O'zbekiston tarixi. Ikkinci kitob,(XIV-asr o'rtalaridan-XIX asr ikkinchi yarimigacha) T., Donishmand Ziyo, 2020.-24-bet

1 Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Birinchi kitob, T., Sharq, 2010.-346-bet

2 B.J.Eshonov., A.A.Odilov. O'zbekiston tarixi. Ikkinci kitob,(XIV-asr o'rtalaridan-XIX asr ikkinchi yarimigacha) T., Donishmand Ziyo, 2020.- 19-20 bet

3 Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Birinchi kitob, T., Sharq, 2010.-347-bet

4 B.J.Eshonov., A.A.Odilov. O'zbekiston tarixi. Ikkinci kitob,(XIV-asr o'rtalaridan-XIX asr ikkinchi yarimigacha) T., Donishmand Ziyo, 2020.-20-bet

5 Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Birinchi kitob, T., Sharq, 2010. -348-bet

6 B.J.Eshonov., A.A.Odilov. O'zbekiston tarixi. Ikkinci kitob,(XIV-asr o'rtalaridan-XIX asr ikkinchi yarimigacha) T., Donishmand Ziyo, 2020.-24-bet